



AYUB G'ULOMOVNING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GRAMMATIK KATEGORIYALARGA OID TADQIQI. (OTLARDA KO'PLIK KATEGORIYASI MISOLIDA)

Ernazarova Mahliyoqon Qobiljonovna

O'zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti Lingvistika
(o'zbek tili) yo'nalishi 2- bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7514667>

ARTICLE INFO

Received: 27th December 2022

Accepted: 07th January 2023

Online: 08th January 2023

KEY WORDS

O'zbek tilshunosligi, grammatik kategoriya, ko'plik kategoriyasi, grammatik ma'no, lingvistik ta'limot.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalarning vositalar va usullari, Ayub G'ulomovning o'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalarga oid tadqiqi, otlarda ko'plik kategoriyasi va ularga doir keltirilgan bir qator misollar, xususi hodisalar umumlashmasi haqida batafsil bayon qilingan.

Kirish: Hozirgi kunda Ayub G'ulom va uning zamondoshlari ilmiy merosiga baho berayotgan ayrim mualliflar ularni o'zbek tili materiallarining o'zidan kelib chiqmasdan, rus tili andazalarini aynan o'zbek tiliga tatbiq etganlikda ayblamoqdalar. Bu o'tmish madaniy merosini baholashning noxolis yo'lidir. Chunki har bir ijodkor jamiyatning tarkibiy qismi ekan, uning ijodiy merosi shu ijtimoiy muhit fonida tahlil etilsagina ob'ektiv bahosini topadi. V.I.Vernadskiy ta'kidlaganidek, ilmiy ifodalangan haqiqatda doimo insonning shaxsiy dunyosi, uning tafakkuri aks etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Taniqli tilshunos A.G'ulomov "O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi" nomli kitobida –lar shaklining polisemantik ma'nolarini ko'rsatib bergan. Olim o'zbek tilidagi ko'plikning uch xil: morfologik, leksik, sintaktik ifodalanishini belgilab, bularninig uchinchi qadimiy ekanligini ta'kidlaydi. Olim –lar affiksining 13 ta ma'nosini ko'rsatib o'tadi, ya'ni predmet sonining ortiqligi; tur ma'nosi; shaxsga hurmat; kulgi, masxara; ma'noni kuchaytirish; umumlashtirish; ish-harakatni uzoq davom ettirish; taxmin; chegaralash; ko'plikni ta'kidlash.

"O'zbek tili grammatikasi"da –lar qo'shimchasi quyidagicha talqin qilinadi: "So'zning morfologik strukturasi son kategoriyasining shakli sifatida qatnashadigan –lar qo'shimchasining ma'nolarini uch guruhga bo'lish mumkin: sof ko'plik ma'nosi, ottenkali ko'plik ma'nosi, ko'plik ifodalamaydigan ma'nolari".

Arab tilshunoslaridan Mustafa G'alayiniy: "Ko'plik – ikkitadan ko'p bo'lgan ism oxiriga qo'shimcha qo'shish yoki so'z o'zagining o'zgarishi," – deydi.

Abdurahmon ibn Muhammad Anbariy aytishicha: "Ko'plik ikkitadan ko'p sonni ifodalovchi o'zgarish shaklidir."

Otlarning birlik va ko'plik shakllarida ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi. Son kategoriyasi otlarning muhim morfologik belgilaridan bo'lib birlik va ko'plik shakllari asosida son kategoriyasi vujudga keladi. Otlarning birligi biror vositasiz ifoda etiladi.



Otlarning ko'pligi -lar qo'shimchasi bilan ifodalanadi: o'quvchilar, kitoblar kabi. Ko'plikning -lar qo'shimchasi orqali ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalangan ko'plikdir. Bundan tashqari otlarda ko'plikni hosil qiluvchi boshqa vositalar ham mavjud. Chunonchi, el, olomon, xalq kabi o'zi birlikda bo'lib, mazmunan ko'plikni bildiradigan so'zlar ham mavjud. Bunday ko'plik lug'aviy -semantik usul bilan hosil bo'lgan ko'plikdir.

Otlarning ko'pligi miqdor bildiruvchi so'zlarni otlardan oldin keltirish bilan ham hosil qilinadi: ko'p o'lcham, bir talay ish, bir necha kun kabi. Ko'plikning bunday ifodalanishi sintaktik usul bilan ifodalangan ko'plikdir. Sintaktik ko'plik otlardan oldin sonlarni: o'n kishi, yuz xonadoni, olmoshlarni qancha ish, shuncha odam, necha kun keltirish bilan ham hosil bo'ladi.

Olim o'zbek tiliga eski turkiy, eski o'zbek tili davridan kirib kelgan arabcha, forscha ko'plik formalari ham uchrashini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqotchi «Arab, fors so'zlarining bizga ko'plik bilan kirganlari juda oz, chunki odatda bir tilning so'zlari boshqa tilga birlik holda o'tadi» deydi. Ustoz arab, fors tillaridan o'tgan ko'plik formali so'zlarni o'zbek tiliga o'tishida o'sha til qonuniyatining saqlanishi tarafdori bo'lgan. Aslida omma nutqida bir qator arabcha, forscha ko'plik formali so'zlarga yana lar qo'shib qo'llash odat tusiga kirib qolgan. Masalan, hol-ahvol-ahvollar, faqir-fuqaro-fuqarolar, valad- avlod- avlodlar (bolalar), taraf-atrof-atroflar, haq-huquq-huquqlar, xalq-xaloyiq- xaloyiqlar, shayx-mashoyix-mashoyixlar, nobiy-anbiyo-anbiyolar, she'r-ash'or-ash'orlar, tolib-talaba-talabalar, shoir-shuaro-shuarolar, kabir-akobir-akobirlar (ulug'lar), xulq-axloq-axloqlar kabi.

Keltirilgan misollarda ko'plik formasi lar suffiksi ortiqchadir. Aslida anbiyo ning_o'zi nabilar. shuaro, shoirlar, ash'or she'rlar mazmunini anglatadi. Ayub G'ulomov ko'plik formali arabcha so'zlarning lar bilan birga qo'llanishiga o'ta zukkolik bilan yondashib, bunday g'ayriqonuniy holatlarni bartaraf etishga harakat qilgan.

Arabcha ko'plik formali so'zlar hozir ham og'zaki va yozma nutqimizda qo'llanilayotgani sir emas. Masalan, axborotlar. fuqarolar, atroflar, xaloyiqlar, hayvonotlar, kutubxonalar kabi. To'g'ri, arabcha so'zlarning ba'zilari o'zbek tilida birlik ma'nosida o'zlashib ishlatilmoqda. Masalan, «kutubxona» birligi «kitobxona». «a'zo bo'lmoq» birligi «uzv» kabi.

Tadqiqotchi birlik va ko'plik formadagi arabcha so'zlarni matnlarda har ikki ko'rinishi ba'zan atayin ishlatilib ma'no kuchaytiriladi yoki umumlashtiriladi, degan to'g'ri xulosaga keladi. Masalan, rasm—rusumlar. xol—ahvollar kabi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, forscha ko'plikni ifodalovchi so'zlar kam o'zlashgan, uning ko'plik ko'rsatkichi on_qo'shimchasi. Masalan, Sipohon. mardon, hukmdoron, kason kabi. Shu o'rinda olim bir nozik holatga e'tiborni tortadi.

Forscha on(lar) qo'shimchasini qadimgi turkiy bitiklarida g'lon, eron kabi turkiy so'zlarda uchrashi, ulardagi on qo'shimchasi forscha ko'plikmi, o'zak bilan birga to'liq birlik formali turkiy so'zlarmi, degan munozarali masala o'rta tashlanadi. Tadqiqotchi on qo'shilgan bir necha turkiy, forsiy so'zlarni misol tariqasida keltirib, o'sha so'z va qo'shimcha tarixini ochishga urinadi, lug'atlarga murojaat qiladi. Mahmud Koshg'ariy, Shayx Sulaymon hamda Radlov, Budagov, Vamberi, Melioranskiylar tuzgan lug'atlarda on aksariyat hollarda turkiy manbalarda ko'plikni anglatmasligi, o'zak va qo'shimcha to'liq birlik ma'no ifodalashi ayon bo'ladi. Hatto, forsiy Amir Xusravning «Panj Ganj» asarida O'g'lon so'ziga ko'plik on



o'g'lonon tarzida ishlatilishini misol tariqasida keltiradi. Shunday qilib, — on qo'shimchasi forsiy ko'plikni ifodalashi bilan birga ba'zi hollarda birlik ma'nosida ishlatilishi isbotlangan.

Grammatik ma'no, asosan, ma'lum grammatik shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, otlarda ko'plik ma'nosini kitoblar affiksi, fe'llarda bo'lishsizlik ma'nosini borma affiksi ifodalaydi. So'zlar asos holatida ham grammatik ma'no ifodalashi mumkin. Bunday holatda grammatik ma'no nol shakl orqali ifodalangan bo'ladi. Mas, otlarda birlik shakli kitob—, fe'llarda bo'lishlilik bor—kabi. Grammatik kategoriya tushunchasi haqida professor A. Hojiyev grammatik kategoriya haqida shunday deydi: "Grammatik kategoriya – asosida yotuvchi ma'nosiga ko'ra birlashuvchi formalar sistemasi".

"Grammatik kategoriyaning odatda ikki turi farqlanadi: 1) morfologik kategoriya; 2) sintaktik kategoriya. Grammatik ma'no va grammatik shaklning birikuvidan vujudga kelgan umumiy tushunchalarni ifodalovchi tildagi xususiyatlar grammatik kategoriya deb yuritiladi", deya izoh beriladi A. Abduazizovning "Tilshunoslik nazariyasiga kirish" nomli kitobida. Kategoriya tushunchasi narsalarga tegishli xususiyatlar ma'nosini ifodalaydi.

Hozirgi o'zbek tilida grammatik kategoriyaga munosabatiga ko'ra so'zning grammatik shakllari ikki turga bo'linadi:

1) kategorial shakllar; 2) nokategorial shakllar. Kategorial shakllar ma'lum bir so'z turkumiga xos grammatik shakllar sistemasiga birlashuvchi, demak, grammatik kategoriya hosil qiluvchi shakllardir: otlardagi grammatik son, egalik va kelishik shakllari, fe'llardagi zamon, shaxs-son shakllari: kitob-im, kitob-ing, kitob-i; maktab-ning, maktab-ni, maktab-ga. Nokategorial shakllar ham ma'lum grammatik ma'noni anglatadi, ammo bir sistemaga birlashmaydi, ma'lum darajada mustaqillikka ega bo'ladi.

Otlardagi kichraytirish va erkalash shakllari, fe'llarning vazifa shakllari kabilar nokategorial shakllarga kiradi: yigit-cha, qiz-aloq, Karima-xon, o'qi-gan, o'qish, o'qi-b kabi. Grammatik kategoriyalarni quyidagi shakllar tizimi hosil qila oladi:

1. Otlarda: son, egalik, kelishik va kesimlik shakllari. 2. Sifatlarda: daraja shakllari. 3. Ravishlarda: qisman daraja shakllari. 4. Fe'llarda: zamon, shaxs-son, mayl, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari. Grammatik kategoriya sintaktik munosabat ifodalash yoki ifodalamasligiga ko'ra morfologik kategoriya va sintaktik kategoriya kabi turlarga bo'linadi.

Morfologik kategoriya so'zlarning turli morfologik ma'nolarini ifodalovchi grammatik ma'no va shaklning birligidir. Masalan, otlardagi son, sifatlardagi daraja kategoriyasi, fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi, nisbat kategoriyasi va boshqalar morfologik kategoriyalar hisoblanadi.

Sintaktik kategoriya so'zlarning sintaktik munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan shakl va ma'no birligidir. Otlardagi kelishik, egalik, kesimlik shakllari, fe'llardagi zamon, shaxs-son va mayl kategoriyalari sintaktik kategoriyalar hisoblanadi. "Grammatik kategoriya, asosan, ikki xil usul bilan ifodalanadi: 1. Sintetik usul – (grekcha synthesis – qo'shish, birga yig'ish). Bunda grammatik ma'no ma'lum grammatik formalar (affikslar) yordamida ifodalanadi. Xususan, otlardagi son, kelishik, egalik shakllari va boshqalar. 2. Analitik usul – grammatik ma'no yordamchi vositalar va so'zlar bilan ifodalanadigan usul.

Natijalar: O'zbek madaniyati rivojiga, XX asr o'zbek tilshunosligi ilmiga tamal toshi qo'ygan olimlardan biri professor Ayub G'ulom hayot bo'lganida 90 yoshga to'lgan bo'lardi. Olim o'tgan asrning eng qiyin, eng dolzarbli davri hisoblangan mustabid tuzum sharoitida



yashab, ijod qilgan. Uning hayot va ijod yo'li oson kechmagan. Zug'umli til siyosati hukmron bo'lgan jamiyatda ona tilining o'ziga xos boyliklarini, afzalliklarini, go'zalliklarini mohirona tahlil qilib, bu tilning ilmiy dunyosiga poydevor yaratish esa undan —da mushkul, mashaqqatli bo'lib, u tadqiqotchi olimdan Katta iroda, matonat talab qilardi.

Xuddi shu vazifani birinchilardan bo'lib ado etgan olimlardan biri Ayub G'ulomov edi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ayub G'ulomning ilk ilmiy faoliyati o'zbek tilining sintaksisi masalalarini tadqiq etishdan boshlandi va bu masala umrining oxiriga qadar uning bosh tadqiqot muammosi bo'lib qoldi.

Professor Ayub G'ulomovlar tarixiga murojaat qilar ekan, ba'zi taxminlarga aniqlik kiritish maqsadida rus turkologlaridan I.I.Meodannikov, N.P.Derenkova, P.M.Melioranskiy, A.R.Zifeldt, K.M.Kolobova, V.Nalivkin, N.S.Budzinskiy va A.N.Kononov kabilar tadqiqotlariga murojaat qiladi. Professor V.A.Bogoroditskiy ul olmoshining ko'pligida bir l tovushining borligi ikki xil taxmin, birinchisi ul asli siz bo'lib ko'plik ko'rsatkichi odatdagidek lar qo'shilgan bo'lsa ikkinchi taxmin ul asli l li bo'lib, ko'rsatkichi ar hisoblangan. Bu esa morfologik jihatdan qayta bo'linish natijasida lar kelib chiqqan, deyiladi.

Shaxsiy tafakkur esa ijtimoiy tafakkurning bir bo'lagi sifatida uning ta'sirida maydonga keladi. Ayub G'ulomning va unga tengdosh bo'lgan olimlarning ilmiy tafakkuri ham o'sha davr ijtimoiy hayotida yagona yo'naltiruvchi kuch bo'lgan markscha —lenincha ijtimoiy tafakkur asosida shakllandi. Sovet fanining barcha sohalarida marksistik g'oyaga amal qilingani kabi, sovet tilshunosligi ham ana shu g'oya asosida rivojlandi.

Ayub G'ulomning bu mafkuradan holi bo'lgan holda ijod qilishi aslo mumkin emas edi. Lekin, eng muhimi, ana shu tarixiy sharoitda ijodkorning qanday ijod qilganligi, fan taraqqiyotiga qanday hissa qo'shganligidadir. Fan doimo o'sishda — o'zgarishda bo'lgani kabi, uning vakili bo'lgan olimning olam haqidagi bilimlari ham o'zgarib, chuqurlashib boradi. O'z navbatida, uning ongidagi o'zgarishlar ilmiy merosida ham o'z aksini topadi.

Olimning izlanuvchanligi, doimiy harakatdaligi ana shu bilan belgilanadi. Ayub G'ulomning sintaktik qarashlari ham umumiy lingvistik ta'limot ta'sirida o'zgarib, takomillashib borganining guvohi bo'lamiz. Fikrimiz isboti uchun uch marta nashr yuzini ko'rgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining har bir nashrida muallif tomonidan qilingan o'zgarishlarni keltirishimiz mumkin.

Muhokama: Lingvistik ta'limot tarixida gapning tayanch bo'lagi haqida ikki xil yo'nalish mavjudligi ma'lum. Gapning muhim belgisi bo'lgan predikativlik ham ana shu yo'nalishga muvofiq ikki xil izohlanadi. O'tgan asrning 30 — yillaridan e'tiboran o'zbek tilshunosligining nazariy masalalari dolzarb bo'lgan lingvistik muammolarning har biri maxsus ilmiy tadqiq etila boshlandi.

Ayub G'ulomov bir qator manbalarga murojaat qilib ko'plik lar dagi ning qadimgi ko'plik ko'rsatkichi dan ekanligiga ham ishora qiladi. Muhtaram ustozning yarim asr muqaddam yaratilgan ushbu risolasi hozir ham nihoyatda ilmiy ahamiyatga egaligi bilan qadrlidir.

Ko'plik ma'nosini anglatuvchi ot o'z semantik xususiyatiga ko'ra birlik shaklda qo'llanaveradi. Shuningdek, sof ko'plik ma'nosi bilan bog'langan predmelarning nomi ham birlikda qo'llanadi. Bunday otlar ko'plik qo'shimchasini olganda predmetning son jihatdan ko'pligini emas, balki boshqa konseptual ma'nolarni ifodalaydi.



Grammatik vositalar orqali hosil qilingan shakllar grammatik shakl deyiladi. Grammatik shaklsiz grammatik ma'no bo'lmaydi, ya'ni so'zning qanday grammatik ma'no ifodalashi uning grammatik shakliga bog'liq. Masalan: kitob-lar-ni, kitob-lar-ning, kitob-lar-dan; yoz-di-m, yoz-di-ng, yoz-di kabi ko'rinishlar kitob, yoz so'zlarining grammatik shakli, birlik va ko'plik son, ma'lum kelishik, shaxs-son, zamon, mayl ma'nolarini ifodalashi grammatik ma'nolaridir.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, grammatik kategoriya tilda so'z tarkibining yangi lug'aviy ma'no kasb etishida xizmat qiladi. So'z grammatik jihatdan yanada orttirilgan yangicha xususiyatni ifodalashini sifat so'z turkumi doirasidagi ahamiyatini ham alohida ko'rishlik tavsiya etiladi.

Zabardast tilshunos olimning ilmiy risolasida ko'plik va jamlikni ifodalovchi so'z va qo'shimchalar tarixi, turkiy, jumladan, eski o'zbek tili davridan boshlab hozirgacha ko'plik formasining morfologik, sintaktik va leksik ifodalanishi, ular bir necha shakllarga egaligi, jamlikning esa grammatik ko'rsatkichi yo'qligi kabi ilmiy mulohazalar o'z davri adabiy manbalari misolida tadqiq etilgan.

References:

1. Hojiyev A., Reshetova L., O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
2. R.Sayfullayeva, M.Jo'raboyeva. Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi. Toshkent. 2004
3. Abduazizov A., Tilshunoslik nazariyasiga kirish: Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik – T.: "Sharq", 2010.
4. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.: 2009.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent, «Fan va texnologiya», 2008,
6. Usmonova K., Hayitov A. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent, 2011.
7. Hojiev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasashining nazariy masalalan. - Toshkent: Fan, 2010.
8. A. G'ulomov, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1987.